


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”



Namangan to‘qimachilik sanoati
instituti rektori

 Q.M. Xoliqov
2024 yil “28” 08.

TIKUV BUYUMLARINI KONSTRUKSIYALASH
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	700 000	Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta’lim sohasi:	720 000	Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
Ta’lim yo‘nalishi:	60721200	Yengil sanoat buyumlari konstruktsiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari texnologiyasi)

Fan/modul kodi TBK 1630		O'quv yili 2023-2024 2024-2025	Semestr 3-4-5-6	Kreditlar 30
Fan/modul turi Asosiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tikuv buyumlarini konstruksiyalash	450	450	900
2.	I. Fanning mazmuni: Fanni o'qitishdan maqsad – material xossalari, moda yo'nalishi, kostyum kompozitsiyasi asoslariga mos ravishda, ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olgan holda, turli shakl, bichim, siluetdagi kiyim modellarini loyihalashning zamonaviy va istiqbolli usullarini egallash uchun nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi - fan va texnika yutuqlaridan foydalanib yangi kiyim modellarini sanoat sharoitida loyihalash, iste'molchi va ishlab chiqarish talablarini hisobga olgan holda turli materiallardan yelkali va bel kiyim konstruksiyasini ishlab chiqish, model eskizlarini tahlil qila olish va konstruktiv modellashning ratsional usullaridan foydalanish bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini kurs, diplom loyihalarini bajarish va real sharoitga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu: Kiyim to'g'risida asosiy tushunchalar va kiyim tashqi shakli sifat ko'rsatkichlari va kiyimga qo'yiladigan talablar. Bazis tori tushunchasi, yosh - jinsiy va to'lalik guruhlari, hisoblash - grafikli konstruksiyalash, umumiy hajmiy shaklini va konstruktiv tuzilishini o'rganish. 2-mavzu: Zamonaviy kiyim assortimenti va tavsifi. Mahsulot klassifikatorida tikuv buyumlarining tasnifi va kodlanishi. Kiyimning klassifikatsiyasini o'rganish. Kiyim funksiyalari. Kiyimning sifat ko'rsatkichlari va unga qo'yiladigan talablar. Sanoat mahsulotining sifat ko'rsatkichlari. Kiyim sifatini baholash usullari. Kostyum funktsiyasiga ko'ra chiziqlar. 3-mavzu: Katta yoshli aholi va yosh bolalar razmer tipologiyasi va standartlari. Odam tanasining razmer tipologiyasi va razmer standartlari gavda tuzilishi. Bolalar razmerlari tipologiyasi. 4-mavzu: Kiyim shakli o'lchamlari va konstruksiyasining			

xususiyatlari. Kiyim konstruksiyalash usullari. Ularning umumiy tasnifi.

Kiyim shaklini hosil qilish vositalari. Kiyim detallarining konstruksiyasini tuzishda qo'llanadigan barcha uslublar dastlabki ma'lumotlarga bog'liq holda ikki yirik sinfga bo'linadi: birinchi sinfni tashkil etuvchi uslublar tipaviy qomatlar o'lchamlarida, qo'shimchalarda, detallarning tipaviy bo'linishlari va ularning shakllanish usullarida detallarga oid konstruktiv nuqtalarning taqribiy joylanishini aniqlashga yordam beradi.

5-mavzu: Bazaviy asoslarni konstruksiyalash usullari va xarakteristikasi.

Tananing asosiy morfologik xususiyatlarini o'rganish. Bazaviy asoslar konstruksiyalash usullari. Kiyim konstruksiyalashda ishlatiladigan odam tanasining o'lchamli xarakteristikasi. Tana proporsiyasi. Shaklning konfiguratsiyasi. Kiyimning asosiy silueta.

6-mavzu: Chaqaloqlar kiyimlarini konstruksiyasini qurish va modellashtirish.

Chaqaloqlar gavda o'lchamlari. Chaqaloqlar kiyim turlari va assortimentlari tahlili. Tanlangan kiyim konstruksiyasini qurish va modellashtirish.

7-mavzu: Bog'cha yoshidagi qiz bolalar ko'ylagi baza asos konstruksiyasi (AK)ni qurish.

Bog'cha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi asos konstruksiyasi (AK) ni qurish uchun kerakli gavda o'lchamlari. O'lchovlarni olish va hisoblash. Chizmaning asosiy baza to'rini qurish. Orqa tomonning chizmasini qurish Old tomonning qurilish chizmasi. Yengning konstruktiv chizmasi. Yoqa chizmasini qurish

8-mavzu: Maktab yoshidagi bolalar liboslari assortimentlari. Tanlangan kiyim asos konstruksiyasi (AK)ni qurish.

Maktabgacha yoshidagi qiz bolalar liboslari tahlili. Tanlangan kiyim assortimentini loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar. Kiyim bazis to'rini qurish. Ort bo'lak konstruktiv chizmasini qurish. Old bo'lak konstruktiv chizmasini qurish. Yeng konstruktiv chizmasini qurish. Yoqa konstruktiv chizmasini qurish.

9-mavzu: Maktab yoshdagi o'g'il bolalar va qizbolalar belli kiyimlari baza asos konstruksiyasi (AK)ni qurish.

O'g'il bolalar shimini andozasini qurish uchun gavdadan kerakli o'lchamlar olish va hisoblash. Shim old bo'lak konstruktiv chizmasini qurish. Shim ort bo'lak konstruktiv chizmasini qurish. Qiz bolalar yubkasi asos konstruksiyasi (AK)ni qurish va modellashtirish.

10-mavzu: Bog'cha va maktab yoshidagi qizbolalar mavsumiy ustki kiyim assortimentlari tahlili asosida baza asos konstruksiyasi (AK)ni qurish**

Ishlab chiqarish korxonalaridagi mavjud mavsumiy ustki kiyim assortimentlar tahlili. Bog'cha yoshidagi qizbolalar mavsumiy ustki kiyim asos konstruksiyasi (AK)ni qurish va modellashtirish.

11-mavzu: Ayollar bluzkasi asos konstruksiyasi (AK)ni qurish.

Ayollar yelkali kiyimlar assortimenti tahlili. Ayollar bluzkasi asos

konstruktsiyasi (AK)ni qurish va modellashtirish.

12-mavzu: Murakkab bichimli ayollar oqshom liboslari konstruktsiyasini qurish.

Murakkab bichimli ayollar oqshom liboslari turlari. Oqshom liboslarini modellashtirish. Dekorativ-konstruktiv modellashtirish.

13-mavzu: Trikotaj tikuv buyumlari baza asos konstruktsiyasi (AK) ni qurish.

Trikotaj yengil kiyimlar assortimentlari tahlili. Konstruktiv metodika turlari. Ayollar, erkaklar, bolalalar sport uslubidagi yengil kiyimlarini konstruktsiyalash.

14-mavzu: Erkaklar sarochkasi baza asos konstruktsiyasini qurish.

Erkaklar sarochkasi turlari tavsifi. Konstruktiv metodika turlari. Sarochka uchun gavdadan olinadigan kerakli o'lchamlar. Sarochka model eskizi bo'yicha old va ort bo'lak, yeng asos konstruktsiyasi baza to'rini hisoblash va qurish.

15-mavzu: Ayollar jaketi asos konstruktsiyasini (AK) hisoblash va qurish**

Ayollar jaketi turlari tavsifi. Bir bortli, ikki bortli jaket turlari. Konstruktiv metodika turlari. Ayollar jaketi asos konstruktsiyasi (AK) chizmasini qurish uchun gavdadan olinadigan o'lchamlar jadvali. O'lcham qiymatlari asosida tipaviy figura uchun *ayollar* jaketi bazali konstruktsiyasini hisoblash va qurish.

16-mavzu: Ayollar jaketi asos konstruktsiyasidan andaza tayyorlash va maketda tekshirish.

Ayollar jaketining baza konstruktsiyasidan andaza tayyorlash. Andaza tayyorlashning texnik shartlari. Ayollar jaketini maketda tekshirish.

17-Mavzu: Ayollar plashi model eskizi bo'yicha asos konstruktsiyasi (AK) hisoblash va qurish**

Ayollar qishki mavsumdagi plashi turlari tavsifi. Konstruktiv metodika turlari. Plash uchun gavdadan olinadigan kerakli o'lchamlar. Tanlangan plash model eskizi bo'yicha old va ort bo'lak asos konstruktsiyasi baza to'rini hisoblash va qurish.

18-Mavzu: Erkaklar kurtkasi model eskizi bo'yicha asos konstruktsiya (AK) dan modellashtirish*

Modellashtirish xususiyatlari. Erkaklar qishki mavsumdagi kurtka asos konstruktsiyasini modellashtirish. Cho'ntak, yoqa turlari bo'yicha yangi dizayndagi kurtka na'munasini tayyorlash.

19-Mavzu: Erkaklar kurtkasi model eskizi bo'yicha andazasini tayyorlash va maketda tekshirish.

Erkaklar kurtkasi baza konstruktsiyasidan andaza tayyorlash. Erkaklar kurtkasini maketda tekshirish.

20-Mavzu: Ayollar mavsumiy paltosi model eskizi bo'yicha asos konstruktsiyasi (AK) hisoblash va qurish.

Ayollar mavsumiy paltosi turlari tavsifi. Konstruktiv metodika turlari. Ayollar mavsumiy paltosi loyihalash uchun gavdadan olinadigan kerakli o'lchamlar. Tanlangan palto model eskizi bo'yicha old va ort bo'lak asos

konstruktsiyasi baza to‘rini hisoblash va qurish.

21-Mavzu: Ayollar mavsumiy paltosi asos konstruktsiyasi (AK) ni modellashtirish.

Modellashtirish hususiyatlari. Ayollar mavsumiy paltosi asos konstruktsiyasini modellashtirish. Cho‘ntak, yoqa turlari bo‘yicha modellashtirish. Vitochkalar, relef qirqimlarni loyihalash. Yangi dizayndagi kurtka na‘munasini tayyorlash.

22-Mavzu: Maxsus kiyim turlari, assortimentlari va klassifikatsiyasi.

Turli sohadagi maxsus ish kiyimlari turlari klassifikatsiyasi hamda ularga tavsif. Kiyim paketlarini hususiyatlari, kiyimlarini qo‘llanish sharoiti, maxsus ish kiyimlarini ishlab chiqarishda sifatini baholash. Maxsus kiyimga qo‘yiladigan talablar.

23-Mavzu: Elektr ta‘minot ishchi hodimlari maxsus kiyimi asos konstruktsiyasi (AK) qurish va modellashtirish*

Elektr ta‘minot ishchi hodimlari maxsus kiyimi uchun model eskiz tanlash va asoslash. Maxsus kiyimni loyihalash uchun kerakli o‘lchamlar. Cho‘ntak, yoqa kabi mayda detallarni loyihalash. Asos konstruktsiyani modellashtirish.

24-Mavzu: Santexnik sohasidagi hodim kiyimini baza asos konstruktsiyasini qurish va modellashtirish**

Santexnik soha hodimlari maxsus kiyimi uchun model eskiz tanlash va asoslash. Maxsus kiyimni loyihalash uchun kerakli o‘lchamlar. Cho‘ntak, yoqa kabi mayda detallarni loyihalash. Asos konstruktsiyani modellashtirish.

25-Mavzu: Qurilish sohasidagi ishchi hodim kiyimini baza asos konstruktsiyasini qurish va modellashtirish.

Qurilish sohasidagi ishchi hodimlari maxsus kiyimi uchun model eskiz tanlash va asoslash. Maxsus kiyimni loyihalash uchun kerakli o‘lchamlar. Cho‘ntak, yoqa kabi mayda detallarni loyihalash. Asos konstruktsiyani modellashtirish.

26-Mavzu: Shifokor sohasidagi hodim kiyimini baza asos konstruktsiyasini qurish va modellashtirish.

Shifokor sohasidagi hodimlari maxsus kiyimi uchun model eskiz tanlash va asoslash. Maxsus kiyimni loyihalash uchun kerakli o‘lchamlar. Cho‘ntak, yoqa kabi mayda detallarni loyihalash. Asos konstruktsiyani modellashtirish.

27-Mavzu: Mo‘ynali kiyimlarni asos konstruktsiya (AK) dan modellashtirish*

Mo‘ynali kiyim turlari. Konstruktiv metodika turlari. Mo‘ynali kiyimlar ishlab chiqarishdagi texnik shartlar. Gavdadan kerakli o‘lchamlar. Qo‘shimchalar, turlari va ulardan foydalanish. Old hamda ort bo‘lak asos konstruktsiyasi. Mayda detallar konstruktsiyasi. Mo‘ynali kiyimlarni asos konstruktsiyadan modellashtirish.

III. Tajriba mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.

Tajriba mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi

1. Turli zamonaviy kiyimlar konstruktiv tuzilishi va tashqi shakl xarakteristikasi

2. Kiyim razmerlari, shakli va konstruktsiyasi

3. Kiyim paketiga, material qalinligiga qo'shimchalar
4. Tana o'lchamlarining dinamikada o'zgarishini e'triborga olgan holda minimal kerak bo'lgan qo'shimchalarni hisoblash prinsplari
5. Kiyimlarni konstruksiyalash usullari
6. Turli kiyimlar uchun asos konstruksiyalar, ularni hisoblash usullari
7. Kiyim balansi
8. O'tkazma yenglarning shakli, konstruksiyasi va konstruksiyalash usullari xarakteristikasi
9. Bel kiyimlari va yelka kiyimlarini konstruksiyalash xususiyatlari
10. Kiyim nuqsonlari
11. BK shaklini o'zgartirib KM usullari
12. Turli shakl va modeldagi yoqalarni konstruksiyalash. Bo'yin o'mizini konstruktiv modellash
13. Andozalar chizmalarini tayyorlash asoslari
14. Andozalar gradatsiyasi
15. Kundalik buyumlar konstruksiyasini qurish.
16. Chaqaloqlar yaxtag, shalvar va shapka baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
17. Bog'cha yoshidagi qiz bolalar uchun ko'ylak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish*
18. Bog'cha yoshdagi o'g'il bolalar uchun ko'ylak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish*
19. Maktab yoshdagi qiz bolalar uchun ko'ylak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish*
20. Maktab yoshdagi o'gil bolalar va qiz bolalar uchun shim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
21. Bog'cha va maktab yoshdagi qizaloqlar uchun mavsumiy ustki kiyim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish*
22. Bog'cha va maktab yoshdagi o'g'il bolalar uchun mavsumiy ustki kiyim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish.
23. Bog'cha va maktab yoshdagi qizaloqlar uchun kurtka baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish*
24. Bog'cha va maktab yoshdagi o'g'il bolalar uchun kurtka baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish*
25. Bog'cha yoshdagi o'g'il va qiz bolalar kombinzonni baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish*
26. Maktab yoshidagi qiz bolalar uchun forma baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish*
27. Maktab yoshidagi o'g'il bolalar uchun forma baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish*
28. O'smir yoshidagi qiz bolalar uchun ko'ylak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish*
29. O'smir yoshidagi o'g'il bolalar uchun ustki kiyim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish*
30. Ayollar trikotaj ko'ylak baza asos konstruksiyasini qurish va

modellashtirish.

31. Bolalar trikotaj kiyim baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish

32. Erkaklar polo ko'ylak baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish

33. Erkaklar nimchasini baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish

34. Erkaklar sarochkasi baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish

35. Ayollar mavsumiy paltosi model eskizi bo'yicha baza asos konstruksiyasini qurish va modellashtirish

36. Maxsus kiyimlarni eskiz model chizmasini chizish va ularga ta'rif berish**

37. Elektr ta'minot ishchi hodimlari maxsus kiyimi asos konstruksiyasi (AK) qurish va modellashtirish*

38. Santexnik sohasidagi hodim kiyimini baza asos konstruksiyasini qurish

39. Qurilish sohasidagi ishchi hodim kiyimini baza asos konstruksiyasini qurish.

40. Shifokor hodimlar maxsus kiyimini baza asos konstruksiyasini qurish
Tajriba mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Zamonaviy kiyim assortimenti va tavsifi. Kiyim haqida umumiy ma'lumotlar. Kiyim funksiyasi.

3. Zamonaviy kiyim assortimenti va tasnifi. Mahsulot klassifikatorida tikuv buyumlarining tasnifi va kodlanishi. Sanoat manekenlari nomenklaturasi.

4. Sifat ko'rsatkichlari va kiyimga qo'yiladigan talablar.

5. Axoli o'lcham tipologiyasi va antropologik razmer standartlari

7. Kiyim o'lchamlarini belgilash. Bolalar o'lcham tipologiyasini tuzilish xususiyatlari.

8. Turli zamonaviy kiyimlar konstruktiv tuzilishi va tashqi shakli xarakteristikasi.

9. Kiyim asosiy siluet va bichimlari.

10. Kiyim konstruksiyasini aniqlovchi asosiy belgilar.

11. Kiyim konstruksiyalash usullari.

12. Kiyimlarni konstruksiyalash usullarining sinflanishi va ularning xarakteristikasi.

13. Bazis to'ri tushunchasi.

14. Turli kiyimlar uchun asos konstruksiyalar, ulami hisoblash usullari.

15. Bel kiyimlari va yelka kiyimlarini konstruksiyalash xususiyatlari. Bel kiyimlariga qo'yiladigan talablar.

16. Bel kiyimlari uchun bazis to'rini qurish. To'g'ri yubka konstruksiyasini

	qurish. Shim konstruksiyasini qurish usullari. 10. Yelka kiyimlarini konstruksiyalashda dastlabki ma'lumotlar. Ayollar va erkaklar kiyimlari uchun bazis to'rini qurish. 11. Kiyim nuqsonlari. Kiyim nuqsonlarining sinflanishi. Konstruktiv nuqsonlar. 12. Konstruktiv nuqsonlarning paydo bo'lish sabablari. Konstruktiv nuqsonlarni tuzatish usullari. 13. Kiyimlarini konstruktiv modellashning umumiy prinsiplari. 14. Konstruktiv modellash (KM) uchun daslabki ma'lumotlarni tayyorlash. Bazali konstruksiyani tanlash mezonlari. Bazaviy konstruksiya (BK) dan foydalanib KM ning 4 xil asosiy turlari. 15. BK ni shaklini o'zgartirmay KM usullari. BK ni shaklini o'zgartirmay yubka va shimni KM, yelkali kiyimlarni KM elementlari; vitochka ko'chirish, taxlama va taqilmalar, bo'yin o'mizi shakli, cho'ntak, lifni qo'shimcha bo'laklash. 16. BK ni shaklini o'zgartirib KM usullari. Kiyim detallarini konus va parallel kengaytirish. Turli shakldagi yubkalarni modellash. 17. O'tkazma yenglarni KM, yeng uchi kengligini o'zgartirish, yengni konus va parallel kengaytirish. Vitochkani qayta modellash. 18. Yelka qismini va yeng o'mizini modellash; kengaytirish; turli shakldagi yeng o'mizlarini (chuqur, tor, kengaygan, tirqishsimon kvadrat) modellash. 19. Turli shakldagi o'tkazma yenglarni modellash va uni modellashtirilgan o'miz bilan muvofiqlash. 20. Turli shakl va modeldagi yoqalarini konstruksiyalash. Bo'yin omizini konstruktiv modellash. 21. Yoqalarga qo'yiladigan talablar. Yoqalarning sinflanishi. 22. Tik yoqa turlarini konstruksiyalash. Qaytarma yoqalarni qurish va KM. Ochiq bo'yin o'mizi uchun pidjak, shol va boshqa tipdagi yoqalarni qurish. 23. Bo'yin o'mizini bezash elementlarini (kokile, jabo, pelerina va h.k.) KM. Kapyushonni bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish. Izoh: * <i>Indian Institute of Technology Delhi (IITD), 197 QS World University Rankings</i> ** <i>Ideal Tekstil-Orzu M.Ch.J. korxonalari taklifidan olingan.</i> Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3	V. Ta'lim natijalari /Kasbiy kompetensiyalari <i>“Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” fanini kasbiy kompetensiyalari</i> Kompyuter texnologiyalari va dasturlardan samarali foydalanish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarish chora tadbirlarini ishlab chiqish hamda korxonada mahsulot sifatini yaxshilash choralarini ko'rishdan iborat. <i>“Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:</i> Talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, loyihalash jarayoniga ijodiy yondashuv hamda kiyim sifati va unga qo'yiladigan talablar, odam

	tanasini tavsiflaydigan razmerli tipologiya va razmerli standartlar, kiyim shakli va o'lchamlari, turli assortimentdagi kiyim konstruksiyasi, konstruktiv modellash usullarini qo'llash va o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	VII Kreditlarni olish uchun talablar: Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.
6	Asosiy adabiyotlar: 1. J.S.Ergashev., N.N.Nabidjanova., D.X.Rayimberdiyeva., R.A.Ergasheva "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash" Namangan-2022 yil. 130 bet. 2. X.X.Kamilova, N.K.Xamrayeva, «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» Darslik –T.: «Cho'lpon», 2011 y-400b 3. D.U.Aripjanova, "Turli qomatlarga kiyimlarni konstruksiyalash". O'quv qo'llanma.Namangan 2021yil-183bet. Qo'shimcha adabiyotlar: 4. Ё.Б.Коблякова, Конструирование одежды с элементами САПР Учебник.-М., «Легпромбытиздат», 1988г-464 с. 5. А.И.Мартынова, Е.Г.Андреева, «Конструктивное моделирование одежды». М., 2002-310 . 6. Мюллер и сын. Сборник. Основные конструкции 2008 г. 7. Лин Жак. Техника кроя. 800 рисунков моделей, детальных чертежей и наглядных схем. Рипол Классик, 2008 г. 8. Делаем выкройки на любую фигуру. Более 300 самых модных моделей/сост. И.А.Зайцева-М.: РИПОЛ классик, 2007. – 448 с. : ил. 9. Kim Kyong. Pattern Making For Women's Clothes. "Anjungki, Korea publication". 2016y. P-367. 10. С.В.Куренова, Конструирование одежды:Учебное пособие. Изд. 3-е /С.В.Куренова, Н.Ю.Савельева – Ростов н/д: Феникс, 2006. – 480. 11. Е.Б.Булатова, М.Н.Евсеева. Конструктивное моделирование одежды., «Академия», 2012 г. Axborot manbalari: 12. http://library.lgaki.info 13. https://academia-moscow.ru/ftp_share/_books/fragments 14. http://ziyonet.uz 15. https://www.youtube.com

7	Fanning o'quv dasturi Namangan to'qimachilik sanoati instituti Kengashining 2024-yil " " " " sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8	Fan/modul uchun ma'sullar: Nabidjanova Nargiza Nasimjanovna - Namangan to'qimachilik sanoati instituti "Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi" kafedrası professori Rayimberdiyeva Dilrabo Xabibillayevna - Namangan to'qimachilik sanoati instituti "Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi" kafedrası katta o'qituvchisi
9	Taqrizchilar: N.B.Maqsudov - "Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi" kafedrası mudiri, dotsent O.S.Yunusov – Namangan "IDEAL TEKIL ORZU" MChJ rahbari